

## JIZZAX VILOYATI ZOMIN TUMANI TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI TAHLILI

*TDIU Moliya fakulteti MMT-87 guruh talabalari  
Abdulaziz Mirzoyev, Barno Hamidova, Zilola Husniddinova*

**Annotatsiya:** Ma'lumki davlatimizda 2021-yildan buyon tashabbusli budjet loyihalari amalga oshirilib kelinadi. Ushbu loyiha natijalarini Zomin tumani misolida ko'rib chiqishimiz va aholining tashabbusli budjet loyihalariga munosabatini o'rganamiz.

**Kalit so'zlar:** Qoldiq mablag', mahalliy budjet, moliyalash manbai, iqtisod qilingan mablag', onlayn ovoz, ovozga qo'yilgan tadbir.

Quyidagi jadvalda (1-jadval) Jizzax viloyati Zomin tumaniga tashabbusli budjet loyihasi doirasida ajratilgan mablag'lar va tuman tasarrufida bo'lgan tegishli hisob raqamlaridagi pul mablag'lari va qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumot yillar kesimida ko'rsatib berilgan.

### Jizzax viloyati Zomin tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori

1-jadval  
(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	1 156 007,1	4 116 890,4
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	1 600 000,0	27 463 617	35 820 433
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 236 210,0	27 607 200	30 696 583,5
3.1	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	1 214 664,3	20 245 444,5	21 967 655,1
3.2	Hisobvaraqlardagi qoldiq	0	7 317 035,7	10 586 723,5
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	385 335,7	1 423 632,3	9 240 739,9

Yuqoridagi jadvaldan bilishimiz mumkinki Zomin tumanida tashabbusli budjet loyihasi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Misol uchun: "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' yillar davomida dastlab 360% keyin esa qariyb 650%

ga o`shish ko`rsatgan. Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi”ga o`tkazilgan mablag`lar va “Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo`naltirilgan mablag`lar miqdori avvaliga 2022-yilda 25 barobarga 2023-yilda mos ravishda 20% va 11% ga o`shish ko`rsatgan. Yil boshidagi qoldiq esa 4 barobarga oshirilib bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag`lar deyarli 22 mlrd so`mga yetdi.

Keyingi jadvalda biz yillar kesimida qaysi turdagi loyihalar ovozga qo`yilganligi ularga ajratilgan mablag` va loyihalar sonini ko`rishimiz mumkin

**2-Jadval**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag` (ming so`mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Hududiy ichki yo`llar	3	24	10	1 214 664,3	21 642 861,8	11 310 723,5
2.	Umumta`lim maktablarini ta`mirlash va jihozlash			2			1 364 518,2
3.	Maktabgacha ta`lim muassasalarini ta`mirlash va jihozlash						
4.	Sog`liqni saqlash muassasalarini ta`mirlash va jihozlash			2			2 047 834,6
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta`mirlash va jihozlash			1			1 052 471,5
6.	Ichimlik suvi ta`minotini yaxshilash						
7.	Ko`cha chiroqlarini o`rnatish tadbirlari		2			2 374 817	
8.	Boshqa tadbirlar		2	1		2 098 312	618 662

9.	<b>Jami:</b>	<b>3</b>	<b>28</b>	<b>16</b>	<b>1 214 664,3</b>	<b>220 901 747</b>	<b>158 374 140</b>
----	--------------	----------	-----------	-----------	------------------------	------------------------	------------------------

### Jizzax viloyati Zomin tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar

Bunda ko`rishimiz mumkinki dastlabki yillarda faqat yo`l sohasiga e`tibor qaratilgan. Jumladan 2021-yilda barcha 3ta loyiha yo`llarni ta`mirlashga qaratilgan. Kelgusi yilda bu ko`rsatkich 24ta loyihaga ko`paygan va ajratilgan mablag` miqdori 20 barobar(2000%)ga oshgan, shu bilan bir qatorda yo`llarni yoritish va boshqa tadbirlarga qiymati 4,3 mlrd bo`lgan 4ta loyiha yo`natirilgan. 2023-yilga kelib loyihalar turlari kengayib umumta`lim maktablari va sog`liqni saqlash muassasalarini ta`mirlashga qaratilgan, ammo o`tgan yilga nisbatan sarflangan mablag` miqdori 50%ga kamaygan. Umumiy miqdorda ajratilgan mablag`lar 2021, 2022, 2023-yillarda mos ravishda 1.2, 220.9, 158.4 mlrd so`mni tashkil etgan

Kelgusidagi jadvalda tuman fuqarolar tashabbusli jamg`armasi mablag`larining shakllanish manbaalari yillar kesimida hamda choraklar kesimida ko`rsatib o`tilgan:

### 3-Jadval

(ming so`mda)

### Jizzax viloyati Zomin tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg`armasi mablag`larining shakllanish manbalari

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar		<b>0</b>	<b>27342741</b>	<b>33974622</b>
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari				
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		<b>499,0</b>	<b>2974300</b>	<b>2099496</b>
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari		<b>690 30</b>	<b>1 460 000</b>
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	<b>499,0</b>	<b>2284000</b>	<b>639496</b>
	Iqtisod qilingan mablag'lar			
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>499,0</b>	<b>30317041</b>	<b>36074118</b>

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki tumanda jamg'armani moliyalash manbaalari yildan yilga kengayib bormoqda va ushbu manbaalar orqali yo'naltirilgan mablag'lar miqdori ham sezilarli darajada ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun tumanda erkin qoldiq mablag'i 200%ga o'sgan. Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 2023-yilda 34mlrd so'mga yetgan, bu esa o'tgan yilga nisbatan 7mlrd so'mga ko'pdir. Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi esa 2022-yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib jamg'armaning hisobiga 2,2mlrd so'm yo'naltirilgan, bu ko'rsatkich 2023-yilda 75%ga qisqargan.

Quyidagi 4-jadvalda Jizzax viloyati Zomin tumanida amalga oshirilgan barcha loyihalar haqida batafsil ma'lumotlarni: ular to'plagan ovozlar soni, ovozlarni qaysi yo'l bilan yo'llanganligi, ajratilgan mablag' miqdori, bajarilgan ish uchun to'langan mablag' va qoldiq summani ko'rishimiz mumkin.

**4-Jadval**

**Jizzax viloyati Zomin tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida  
amalga oshirilgan loyihalar tarkibi**

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Shu jumladan		Moliyalash tirish uchun ajratilgan mablag' miqdori	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Qoldiq mablag'lar (Ming so'mda)
			onlayn ovozlar	SMS orqali ovozlar			
<b>2021-yilda</b>							
1	Zomin tumani Beshbegi qishlogida joylashgan 69-maktabga olib boruvchi yo'lni asfalt qilish	580	75	505	318 074	312 466,5	5 607,5
2	Istiqlol QFY Chaparashli qishlog'i ichki yo'llarini asfalt qilish	533	65	468	738 000	722 099,9	15 900,1
3	Shirin MFY Nebo'sa qishlog'i Nebo'sa ko'chasini asfalt qilish	184	3	181	180 136	180 097,9	38,1
<b>2022-yilda</b>							

1	Kultepa mahalladegi 33-maktab va 23-MMTni gazlashtirish	10 743	1 623	9 120	3 240 000	1 018 312	1 141 688
2	Chaparashli qishlog'i ichki ko'chalarini asfalt qilish	10 647	1 035	9 612	3 192 000	2 066 050	61 950
3	Jarqishloq qishlog'i 55-maktab hovlisi va maktabga olib boruvchi ichki ko'chalarini asfalt qilish	6 792	708	6 084	991 200	628 840	31 960
4	Sh.Rashidov MFY Navro'z ko'chasini asfalt qilish	6 282	48	6 234	1 680 000	1 067 970	52 030
5	Gulshan QFY Gulshan qishlog'i Begoyim va Mironshox ko'chalarini asfalt qilish	5 235	57	5 178	3 192 000	2 089 900	38 100
6	Xalqobod MFY Bo'stonliq ko'chasini asfalt qilish	4 044	561	3 483	3 192 000	2 042 740	85 260
7	Uvol qishlog'i ichki ko'chalarini asfalt qilish	3 849	18	3 831	2 520 000	1 638 960	41 040
8	Zomin tumani Beshkubi QFY Uvol qishlog'iga olib boruvchi yo'ning 2100 metr qismini asfalt qilish	4 370		4370	1 200 000		
9	Zomin tumani Beshkubi QFY Beshkubi qishlog'i Axtixona mahallasiga olib boruvchi yo'ning 2000 metr qismini asfalt qilish	3 576		3 576	1 200 000		
1	Zomin tumani Gulshan QFY Gulshan qishlog'i ichki ko'chalariga yoritish chiroqlari o'rnatish	1 506		1 506	1 200 000		
1	Zomin tumani Istiqlol QFY Chaparashli qishlog'i ichki ko'chalarini 2200 metr qismini asfalt qilish (22-maktab yaqinidagi mini stadion ko'chasi)	1 446		1 446	1 200 000		

1	Beshkubi QFY Uvol qishlog`i olib boruvchi yo`lni asfalt qilish	4 370		4 370	1 200 000	1 192 000	8 000	
1	Beshkubi QFY Beshkubi qishlog`I Axtixona mahallasiga olib boruvchi yo`lni asfalt qilish	3 576		3 576	1 200 000	1 197 000	3 000	
1	Gulshan QFY Gulshan qishlog`i ichki ko`chalariga yoritish chiroqlari o`rnatish	1 506		1 506	1 200 000	1 174 817	25 183	
1	Istiqlol QFY Chaparashli qishlog`i ichki ko`chalarini asfalt qilish	1 446		1 446	1 200 000	1 197 000	3 000	
<b>2023-yilda</b>								
1	Zomin tumani Beshkubi QFY Beshkubi qushlog`i Axtixona, Qiya va Sakkiztom mahallasi yo`llarini 2 km qismini asfalt qilish	33 816			3 600 000	1 502 472	897 528	
2	Zomin tumani Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligini texnikumi binosi tom qismini kapital ta`mirlash	29 100			3 600 000	1 102 310	1 297 690	
3	Zomin tumani Beshkubi QFY Uvol qishlog`i ichki yo`llarini 2,2 km qismini asfalt qilish	27 600			3 600 000	1 322 676	1 077 324	
4	Zomin tumani Gulshan QFY Gulshan qishlog`i Baynalminal va Mironshox ko`chalarini 2,2 qismini asfalt qilish	26 604			3 600 000	1 146 742	1 253 259	
5	Zomin tumani Qayirma MFY Mustaqillik ko`chasida quyosh panellari bilan jihozlangan, yoz va	25 320			2 200 000	648 662	1 051 338	

	qish mavsumlariga mo'ljallangan "Mini stadion" sport inshooti qurish						
6	Zomin tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi b'olimiga 50KvT lik quyosh panellari o'rnatish	24 752			2 961 000	1 971 600	2 400
7	Zomin tuman 2-son kasb-hunar maktabning A o'quv binosini yog'och romi deraza va eshiklarini alyumin eshik va deraza romlariga almashtirish	24 056			2 456 000	1 093 471	162 530
8	Zomin tumani Istiqlol QFY So'fimozor qishlog'i 2-sonli maktabga qo'shimcha xonalar qurish	20 008			838 000	751 618	86 382
9	Zomin tumani Obi-xayot QFY Qo'ng'irboy qishlog'i ichki ko'chasini 2.1 km qismini asfalt qilish	17 096			2 423 000	1 034 372	188 629
1	Zomin tumani Nurlikent MFY Nurlikent mahallasi Ishchilar, Bekobod va Ziynat ko'chalarini 2,2 km qismini asfalt qilish	11 480			2 423 000	1 043 035	179 966
1	Zomin tumani Obi-xayot QFY Quchchi oqtosh qishlog'i Oqtosh va E.Xolmatov ko'chalarini 2.2 km qismini asfalt qilish	8 016			2 423 000	1 015 226	207 505
1	Zomin tumani Beshkubi QFY Axitxona mahallasining qolgan 1.3 km qismini va Beshkubi qabristoniga olib boradigan	8 128			2 640 000	1 250 793	69 207

	ichki yo'lni asfalt qilish. Qabriston oldiga avtoturargoh qurish kerak. Jami 2.4 km						
1	Zomin tumani Beshkubi QFY Sadaovul, O'rtaovul, Buloqboshi, Ingichga, mahallalari ichki yo'llarini 2.4 km asfalt qilish	7 692			2 640 000	1 251 960	68 040
1	Zomin tumani To'rttom MFYdagi 70-maktabda zamonaviy quyosh panelli usti yopiq mini stadion qurish	7 486			2 200 000	636 900	463 100
1	Zomin tumani Gulshan qishlog'ining Istiqbol (600m), Begoyim (600m), Savr (600m) hamda Chaman (600m) ko'chalarini asfalt yo'l qilish.	7 356			2 640 000	1 227 487	92 513
1	Zomin tumani Nurlikent MFY ichki Nurlikent (900 m), Ziyat (700 m) va Jiydazor (600 m) ko'chalarini jami 2.2 km qismini asfalt qilish	7 212			2 640 000	1 252 472	67 528

Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, tuman aholisi har mavsumda faollik ko'rsatadi va ovozlarning asosiy qismi SMS orqali yuborilgan. Loyihalarning o'rtacha qiymati 2 mlrd so'mni tashkil qiladi va o'rtacha 10 000 ovoz to'plab kelgan. Bajarilgan loyihalar turi va soni yillar davomida ortib bormoqda. Tuman tarixida eng ko'p ovoz to'plagan loyiha bu 2023-yildagi Zomin tumani Beshkubi QFY Beshkubi qishlog'i Axtixon, Qiya va Sakkiztom mahallasi yo'llarini 2 km qismini asfalt qilish loyihasi bo'lib u 33 816ta ovoz to'plagan. Eng past ko'rsatkich esa 184ta ovoz bilan 2021-yilda Shirin MFY Nebo'sa qishlog'i Nebo'sa ko'chasini asfalt qilish loyihasi g'alaba qozongan.

### Xulosa



Jizzax viloyati Zomin tumanida tashabbusli budjet loyihasi muvoffaqiyatli yo`lga qo`yilgan va tuman aholisi o`z faolligini ko`rsatib ushbu loyihaga befarq emasligini ko`rsatgan. Tuman jamg`armasida barcha jabhalarda o`shish bor va loyiha amalga oshirish jarayonlari va ovoz berish bosqichlari takomillashtirib borilmoqda. Moliyalashtirishning yangi manbaalari va miqdori sezilarli daraja ko`paygan. Aholi o`z ehtiyojlaridan kelib chiqib turli sohalardagi muammolarga e`tibor qaratmoqda. Tumandagi umumiy ko`rsatkichlar ijobiy tomonlarni o`shish ko`rsatib kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O`quv qo`llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O`quv qo `llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O`quv qo`llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролариштиракидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. УҲ О'роқов, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УҲ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва оқиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Vaktria press. 2016.
17. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.

18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самаралари ва йўллари. 2017
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
21. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
22. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари. - Science and Education, 2023
23. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasidabudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
24. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
25. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
26. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
28. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
1. 28. Masharipov I.B. MODERNIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. The Way of Science International scientific journal. 2020. 6 (76)